

O'ZNEKISTON RESPUBLIKASIDA O'LIM JAZOSINI BEKOR QILISH INSON
HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATIDIR: MILLIY VA XORIJIY
DAVLATLAR

Ne'matjonova Mumtozbegim Baxromjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

+998-94 152-05-26. mumtoz441@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15115780>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'lim jazosining o'ziga xos xususiyatlari aytib o'tildi.

Ammo ko'p davlatlarda o'lim jazosining joriy qilinishi ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi, ushbu jazoni qo'llashdan maqsadlar va sabablar aytib o'tildi. Ko'p mamlakatlarda esa bu jazo turi inson huquq erkinliklarini buzish deb qaralgan. Milliy huquq tizimida o'lim jazosining ahamiyati haqida so'z boradi va taklif beriladi. Yashash huquqining kafolatlarini ta'minlovchi xalqaro tajribalar, shartnomlar, hujjatlar muhokama qilindi. Odil sudlovda o'lim jazosining bekor qilinishiga doir dalillar, fikrlar keltirildi.

Kalit so'zlar: o'lim jazosi, yashash huquqi, inson huquq va erkinliklari, konstitutsiya, sud, xalqaro hujjat, Konstitutsiyaviy huquq.

THE ABOLITION OF THE DEATH PENALTY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
IS A GUARANTEE OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS: NATIONAL AND
FOREIGN STATES.

Abstract. This article describes the specific features of the death penalty. However, the introduction of the death penalty in many countries caused a lot of discussion, the goals and reasons for the use of this punishment were mentioned. In many countries, this type of punishment is considered a violation of human rights and freedoms. The importance of the death penalty in the national legal system is discussed and suggested. International experience, contracts, and documents guaranteeing the right to life were discussed. Evidence and opinions on the abolition of the death penalty were presented at the trial.

Key words: death penalty, right to life, human rights and freedoms, constitution, court, international document, Constitutional law.

ОТМЕНА СМЕРТНОЙ КАЗНИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН – ГАРАНТИЯ
ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА: НАЦИОНАЛЬНЫХ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН.

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности применения смертной казни. Однако введение смертной казни во многих странах вызвало много дискуссий, упоминались цели и причины применения этого наказания. Во многих странах этот вид наказания считается нарушением прав и свобод человека. Обсуждается и предлагается значение смертной казни в национальной правовой системе. Обсуждался международный опыт, контракты и документы, гарантирующие право на жизнь. На суде были представлены доказательства и мнения об отмене смертной казни.

Ключевые слова: смертная казнь, право на жизнь, права и свободы человека, конституция, суд, международный документ, конституционный закон.

Kirish.

O‘lim jazosi — sud tomonidan [qotillik](#) deb ataladigan amaldagi jazo sifatida shaxsni qasddan o‘ldirish bo‘yicha davlat tomonidan qo‘llaniladigan jinoiy jazo chorasi hisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash demokratik va huquqiy davlatning asosiy belgilari hisoblanadi. Ushbu huquqlar esa bosh qomusimizda ham belgilab o‘tilgan. Fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan biri bu yashash huquqidir. Bu erkinlik bevosita amalga oshiriladi, shu bilan birga bir qatorda cheklash mumkin emas. Konstitutsiyamizning 25-moddasida ham aytib o‘tilganidek: Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi. Xo‘sh, bu davrgacha nechta bosqichlarini bosib o‘tdi.

Tarixdan ma‘lumki, qadimgi misrda ham shunday jazo turlari amalda bo‘lganki, kishini hayratga solidi. Davlat sirini oshkor qilgani uchun shaxsni tili kesib tashlangan, soxta hujjatlar, buyumlar tayyorganlagan insonlar ham qattiq jazolangan.

Bundan tashqari, odam oldirish o‘lim jazosi bilan jazolangan. Chunki, bir insonni jonini olgandan keyin unga ham o‘lim jazosi muvofiq deb hisoblashgan..

Bir necha davlatlarda quyidagi harakatlar uchun o‘lim jazosi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: jins bilan bog‘liq jinoyatlar, davlatga qarshi aharaktlar terrorism, davlat sirini oshkor qilish, davlatga xoinlik qilish yoki insonga qarshi qaratilgan jinoyatlar ya‘ni genotsid, urushni targ‘ib qilish va boshqalar. Bundan tashqari, ayrim hollarda, giyohvand moddalar savdosi va giyohvand moddalarni saqlashdan tashqari uni iste‘mol qilinishi, yoki takroran jinoyat sodir etish, odam savdosi, odam o‘g‘irlash kabi jinoyatlar ham jiddiy jinoyat hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari va tahlili.

Shunday bo'lsada o'lim jazosi ayrim rivojlangan mamlakatlarda saqlanib qolgan, ayrimlarida esa yo'q. Statistikalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'lim jazosi hozirda **58 mamlakatda** bekor qilingan, 31 davlat qonunida ko'zda tutilgan bo'lsada, keyingi 15 yil davomida ularning aksariyatida hech kim bu jazoga hukm qilinmagan. O'lim jazosi **77 mamlakatda**, shu jumladan, Xitoy, Eron, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va AQShning **38 shtatida** qo'llanmoqda. Pokiston, Kongo, Nigeriya va Yamanda voyaga yetmaganlar ham O'lim jazosiga hukm etilishi mumkin. So'nggi ma'lumotlariga ko'ra quyidagi davlatlarda o'lim jazosi eng ko'p qo'llanilgan: birinchi o'rin Xitoy davlatiga, keyingi o'rinlar esa Eron, Saudiya Arabistonda, Pokiston, AQSH davlatlariga tegishli. O'lim jazosining bekor qilinishining ham yaxshi ham yomon tomonlari mavjud. O'lim jazosi Angliyada 1969 yildan, Fransiyada 1981 yildan, G'arbiy Germaniyada 1949 yildan, GDRda 1987 yildan, Ispaniyada 1975 yildan, Rossiyada 1996 yildan buyon qo'llanilmaydi. Portugaliya 1867 yilda, Yevropada birinchi bo'lib o'lim jazosini bekor qilgan. Belarus davlat bu jazo turini qo'llab kelayotgan ohirgi davlat hisoblanadi.

O'lim jazosi bekor bo'lishining yaxshi tomonlari:

Birinchidan noqonuniy hukm qilish xavfi kamayadi ya'ni o'lim jazosini tayinlashdagi xatoni shaxs allaqachon qatl qilinganidan keyin tuzatib bo'lmaydi hamda ushbu jazoning bekor qilinishi adolatsizlikdan saqlaydi. Bunga misol sifatida ushbu hodisani keltirishimiz mumkin: 1993-yil avgust oyida qatl etilgan Aqshning Texas shtatida yashovchi 26 yoshli Ruben Kantning hikoyasi ham Amerikani hayratda qoldirdi. U qurolli talonchilik va qotillikda ayblangan va o'lim jazosiga mahkum etilgan Faqat 2005 yildagina shubhali faktlar asosida begunoh odam qatl etilgani ma'lum bo'lgan va bunga misol sifatida boshqa bir qancha holatlar mavjud.

Ikkinchidan o'lim jazosining bekor qilinishi gumanizm hamda demokratizm g'oyalarini keng rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. o'lim jazosi yo'q mamlakatlarda inson hayoti va qadr-qimmatiga hurmat aks ettiriladi, jamiyatda insonparvarlik va mehr-oqibat muhimligi ta'kidlanadi.

Uchinchidan mahkumga o'z qilgan qilmishini oqibatlarini ko'rsatish hamda qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash uchun o'lim jazosidanda samaraliroq jazo turlari mavjud masalan, uzoq muddatli va umrbod ozodlikdan mahrum qilish. Fikrimcha, jazoning maqsadi ham jinoyatchini tarbiyalash, axloqan tuzatish bo'ladigan bo'lsa jinoyatchi o'lim jazosiga mahkum etilishidan qanday mantiq mavjud? Aybdor o'zining jazosini o'tab chiqqandan keyin ham jamiyatga qo'shilishi lozim. Bu esa bir qancha vaqt o'tgandan keyin ro'y berishi mumkin.

O‘lim jazosini bekor qilinmasligining sabablariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

*Birinchi*dan, bu ko‘plab jinoyatlarning potensial o‘tib borishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

O‘lim jazosi jamiyatni xavfli jinoyatchilardan himoya qilishga yordam beradi beradi.

Ayrim insonlar qattiq jazo choralari qo‘llab, jinoyat uchun qat‘iy va og‘ir javobgarlik tizimi joriy etilganida odamlar o‘zlarida qonun kuchini sinab ko‘rishga jur‘at eta olishmaydi deb hisoblashadi

*Ikkinchi*dan, Jabrlanganlarning qarindoshlari o‘z yaqinining hayotiga zomin bo‘lgan jinoyatchiga o‘lim jazosi berilmasa o‘ziga nisbatan adolatsizlik va jinoyatchiga nisbatan esa yetarlicha jazolanmaganlik hissini his qilishlari mumkin.

*Uchinchi*dan, ushbu masalaning moliyaviy tendensiyasi ham mavjud chunki jinoyatchini qamoqda saqlab turush, uni oziq-ovqat kiyim-kechak bilan ta‘minlash bevosita iqtisod bilan bog‘liq. Hukumatga umrbod qamoqqa olinganlarni o‘lim jazosiga mahkum qilishdan ko‘ra uy-joyga joylashtirish qimmatroqqa tushishi mumkin.

Garchi shunday bo‘lsa ham o‘lim jazosining saqlanib qolishi insonparvarlik va gumanizm prinsiplaridmga zid. Ushbu masalaning diniy omillari ham bor sababi Alloh bergan jonni faqat

Alloh olishi mumkin hamda o‘lim jazosini qo‘llash jinoyatchilikka qarshi kurashishda malakali yoki samarali yechim hisoblanmaydi.

Yana bir jihati, ko‘plab davlatlarda o‘lim jazosi belgilangan. Ammo jinoyatchilik kamayib qolgani yo‘q. Aksincha, ko‘paygan holatlar ham bo‘ladi. Maisol uchun, ayrim davlatlar korrupsiyaga qat‘iy kurashgan holda, bu jinoyatni assodir etga shaxsga nisbatan o‘lim jazosini ustun ko‘rishadi. Eng muhim masala jazoning qattiqqligi emas, Jinoyat kodeksida prinsip sifatida e‘tirof etilgan jazoning muqarrarligidir. Shuningdek huquqshunos Farhod Primovning fikricha “Jinoyatchilikning oqibati emas, balki sabablariga qarshi kurash olib borish - insonparvar prinsip hisoblanadi. Negaki, shaxsning jinoyat sodir etishini kutib o‘tirib, holat yuz bergandan keyin javobgarlikka tortish adolatdan bo‘lmaydi. Biz shaxsni jinoyat sodir etish yo‘liga qadam qo‘ygan paytidayoq qaytarishimiz kerak. Ana shunda bizda jinoyatchilar paydo bo‘lmaydi” degan.

Fikrimcha ham shunday sababi o‘lim jazosining saqlanib qolishi rivojlangan mamlakat hisoblangan AQSh hamda boshqa davlatlarda ham jinoyat sodir etilish darajasini pasaytirgani yo‘q.

Qadimgi Yunoniston: [Protagor](#) (uning fikri [Platon](#) tomonidan bildirilgan) qasos tamoyilini tanqid qiladi, chunki zarar yetkazilganidan keyin uni hech qanday harakat bilan bekor qilib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, agar o'lim jazosi jamiyat tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lsa, u faqat ikkinchi jinoyatni oldini olish yoki undan voz kechish uchundir ^[4]. Shuning uchun Protagor biladigan yagona huquq bu inson huquqidir, u suveren jamoa tomonidan o'rnatilgan va tasdiqlangan, o'zini ijobiy yoki davlatning amaldagi qonuni bilan belgilaydi. Aslida, u o'z kafolatini o'lim jazosida topadi. Hurmat qilmaydiganlarning hammasiga tahdid soladi^{[5][6]}

Platon, o'z navbatida, o'lim jazosini poklanish vositasi sifatida ko'rdi, chunki jinoyatlar „ifloslanish“dir. Shunday qilib, qonunlarda u tasodifan odamning o'limiga sabab bo'lgan hayvonni yoki obyektini yo'q qilishni zarur deb hisoblaydi. Shunday qilib, qotillik ruhning kasalligi bo'lib, uni iloji boricha qayta tarbiyalash kerak va agar reabilitatsiya imkoni bo'lmasa, oxirgi chora sifatida o'limga hukm qilish kerak^[7].

Aristotelning fikricha, iroda erkinligi insonga tegishli bo'lsa, fuqaro o'z harakatlari uchun javobgardir. Agar jinoyat sodir etilgan bo'lsa, sudya uning o'rnini qoplash orqali jinoyatni bekor qilishga imkon beradigan jazoni belgilashi kerak^[8].

Bu falsafa bir tomondan jamiyatni himoya qilishga, ikkinchi tomondan sodir etilgan jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. U XVII asrgacha, ya'ni o'lim jazosini bekor qilish haqidagi ilk mulohazalar paydo bo'lgan vaqtgacha G'arb jinoiy qonunchiligini ilhomlantirib kelgan^[9].

Xitoy: Xitoy Xalq Respublikasida hozirgi kunga qadar o'lim jazosi qo'llanilib kelsada, Tan sulolasidan bo'lmish Syuan Szyan amalga oshirgan

O'zbekiston milliy huquq tizimi: O'lim jazosini jazolash tizimidan butkul chiqarib tashlash choralari ko'rilmogda. Mustaqillikka erishganimizdan keyin yurtimizda o'lim jazosi qo'llanishi mumkin bo'lgan jazolar ro'yxati 33 tadan 2 tagacha qisqartilidi. Ayni paytda O'zbekiston qonunchiligida faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik uchungina O'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan, xotin-qizlarga, voyaga yetmaganlar va 60 yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan O'lim jazosi qo'llanilishi man etilgan. „O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2005-yil 1 avgust)ga ko'ra, 2008-yilning 1-yanvaridan O'lim jazosi o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu farmon orqali insonning yashash huquqi kafolatlanadi va himoya qilinadi. Zero, yashash huquqi har bir inson eng muhim huquqidir.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosaga keladigan bo'lsak, o'lim jazoning qo'llanishi har doim ham to'g'ri yo'l bo'lavermaydi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 7-moddasida keltirilgan insonparvarlik prinsipiga ham zid hisoblanadi.

Yashash huquqi har bir insonning tabiiy huquqi va tugʻilganidan boshlab beriladigan huquqi hisoblanib, bularning cheklanishi demokratik tamoyillarini buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunday boʻlsada, ayrim huquqshunoslar, quyidagi jinoyat turlariga oʻlim jazosi qoʻllanishi kerak deb hisoblaydilar. Misol uchun: 97, 118, 155-moddalar. Bu moddalar oʻz tarkibiga qasddan odam oʻldirish, nomusga tegish, terrorizmlarni qamrab oladi.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. Jean-Marie Carbasse 2002, s. 15
4. Neschke, Ada Babette; Follon, Jacques. *Platonisme politique et théorie du droit naturel: Le platonisme politique dans l'antiquité*, 1995. ISBN 9789068317688.
5. Neschke, Ada Babette; Follon, Jacques. *Platonisme politique et théorie du droit naturel: Le platonisme politique dans l'antiquité*, 1995. ISBN 9789068317688.
6. „La peine de mort“. 2020-yil 29-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 2-aprel.
7. „Jean-Marie Carbasse“. 2023-yil 9-iyulda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 2-aprel.
8. „1700 BC – 1799“.